

## “Talaba-qizlar bilan uchrashuv”

### “Talaba-qizlar bilan uchrashuv”

2022 yilning 28 oktyabr kuni 3-Talabalar turar joyida yashayotgan talaba-qizlar bilan uchrashuv o'tkazildi. Tadbirda SXTE va B dekani o'rinbosari J.Turdiyev, fakultet tyutorlari, 3-TTJ tarbiyachi-pedagogi ishtirok etdi. SXTE va B dekani o'rinbosari J.Turdiyev so'zga chiqib, talabalar o'rtasida do'stona munosabatni yanada mustahkamlash, bir oila farzandlaridek ya'ni opa-singildek munosabatda bo'lish, bir-biriga qo'ldan kelganicha ko'maklashish, maslahatlarini ayamaslik, ta'lim jarayonlaridagi har qanday yutuqlarini o'zaro nishonlash, bayramlarni ko'tarinki ruhda o'tkazishga, tadbirlarda faol bo'lishga talabalikning oltin davrini munosib o'tkazishga chaqirdi. TTJda o'zlari yashaydigan xonalarni tartibli, ozoda tutish, oshxona jihozlaridan to'g'ri foydalanish, xona va qavat navbatchilari belgilangan vazifalarini o'z vaqtida bajarib borishi haqida bir so'z bilan aytganda ahil-inoq bo'lib yashashlari shartligi to'g'risida ta'kidlab o'tdilar. Fakultet tyutorlari ham o'zlarining fikr-muloxazalarini bildirib va ko'rsatmalar berishdi.

SXTE va B tyutori M.Vafoyeva axboroti

Universitet matbuot xizmati



